

PUBLIC FINANCE

Ergasheva Lobar

Tashkent International University of Financial Management and Technologies

Faculty of Business and Management

Student of Finance and Financial Technologies

Academic supervisor: **Berdikulova Manzura**

Tashkent International University of Financial Management and Technologies, Senior Lecturer,
Department of Finance, Banking and Accounting

Abstract:

This paper examines the essence of the public finance system, its structural components, and its role in a market economy. Concepts such as the state budget, extra-budgetary funds, and public credit are analyzed. Furthermore, the significance of fiscal policy in ensuring macroeconomic stability and issues related to increasing the efficiency of public expenditures are highlighted.

Keywords

Public Finance, State Budget, Fiscal Policy, Macroeconomic Stability, Extra-budgetary Funds, Public Credit, Market Economy.

Annatatsiya

Ushbu ishda davlat moliya tizimining mohiyati, uning tarkibiy qismlari va bozor iqtisodiyoti sharoitidagi roli ko'rib chiqiladi. Davlat byudjeti, byudjetdan tashqari jamg'armalar va davlat krediti kabi tushunchalar tahlil qilingan. Shuningdek, moliya siyosatining makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati va davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit sozlar

Davlat moliyasi, Davlat byudjeti, Moliya siyosati, Makroiqtisodiy barqarorlik, Byudjetdan tashqari jamg'armalar, Davlat krediti, Bozor iqtisodiyoti.

Аннотация:

В данной работе рассматривается сущность государственной финансовой системы, её структурные компоненты и роль в условиях рыночной экономики. Анализируются такие понятия, как государственный бюджет, внебюджетные фонды и государственный кредит. Также освещается значение финансовой политики в обеспечении макроэкономической стабильности и вопросы повышения эффективности государственных расходов.

Ключевые слова

Государственные финансы, Государственный бюджет, Финансовая политика, Макроэкономическая стабильность, Внебюджетные фонды, Государственный кредит, Рыночная экономика.

Kirish

Zamonaviy dunyoda davlat moliya tizimi nafaqat pul mablag'larini to'plash va taqsimlash mexanizmi, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik vositadir. Bozor munosabatlari chuqurlashgan sari, davlatning iqtisodiyotdagi roli bevosita moliya siyosati orqali namoyon bo'ladi. Xususan, global iqtisodiy tebranishlar va resurslar cheklangan sharoitda davlat byudjeti, byudjetdan tashqari jamg'armalar va davlat krediti kabi moliya bo'g'inlaridan samarali foydalanish har qanday mamlakat iqtisodiy xavfsizligining garovidir.

Davlat moliya tizimining mohiyati va uning tarkibiy qismlari klassik iqtisodiy nazariyalardan tortib, zamonaviy makroiqtisodiy tadqiqotlargacha bo'lgan bosqichlarda o'rganib kelinmoqda. Biroq, raqamli iqtisodiyot va transformatsiya jarayonlari davlat xarajatlarining shaffofligini ta'minlash hamda ularning natijadorligini baholash bo'yicha yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, moliya siyosatining makroiqtisodiy barqarorlikni saqlashdagi instrumentariylarini takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Davlat moliyasi — bu davlatning o'z vazifa va funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan pul mablag'lari jamg'armalarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyasi shunchaki "xazina" emas, balki makroiqtisodiy jarayonlarni tartibga soluvchi eng kuchli dasta hisoblanadi.

Davlat byudjeti muayyan mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham ifodalaydi. Jamiyatning iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiati va faoliyatiga qarab davlat byudjeti mohiyati, uning daromadlari va xarajatlari xususiyati hamda tarkibi turlicha bo'ladi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda davlatning iqtisodiyot, ishlab chiqaruvchi, milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashga faol aralashuvi davlat byudjeti mavqeining oshishiga sabab bo'ladi, milliy daromad davlat ixtiyorida yig'iladi va uning byudjet orqali qayta taqsimlanadigan qismi ko'payadi.

Moliya siyosati — bu davlatning o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlariga erishish uchun moliya tizimidan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar majmuidir. Agar davlat moliyasi "mexanizm" bo'lsa, moliya siyosati shu mexanizmni boshqarish san'atidir.

Moliya siyosati ta'sir ko'rsatadigan asosiy ob'ektlar — aholining turli katamlari, davlat institutlari (tashkilotlari), sanoat va xo'jalikning b. sohalari, mintakalar va mamlakatlarning umumiy hududi. Moliya siyosatining asosiy quroli va tarkibiy qismi — davlat byudjeti daromadlari va harajatlari, zayomlari, soliq imtiyozlaridir. Davlat tomonidan tanlagan iqtisodiy siyosatga va maqsadlarga qarab ayrim bandlar buyicha harajatlarni kupaytirish yoki kamaytirish orqali mamlakat hayotining u yoki bu tomonlariga, davlat institutlari ga, iqtisodiyot tarmoqlariga, mas, harbiy harajatlarni yoki ilmiy texnik taraqqiyot uchun harajatlarni kupaytirib yoki kamaytirib, faol ta'sir etish mumkin. Davlat daromadlar, ularning miqdori, soliklar tizimi orqali iqtisodiy ushish sur'atiga, aholi farovonligiga ta'sir ko'rsatishi, inflyasiya jarayonlarini va hokazoni boshqarishi mumkin.

Makroiqtisodiy barqarorlik — bu iqtisodiyotda ichki va tashqi muvozanatning ta'minlangan holatidir. Bu shunchaki iqtisodiy o'sish emas, balki kutilmagan iqtisodiy "shoklar" (inqirozlar, narxlar keskin oshishi)ga nisbatan tizimning chidamliligidir. Davlat moliyasi va moliya siyosati aynan shu barqarorlikni ushlab turuvchi asosiy ustun hisoblanadi. Davlat moliyasining samaradorligini ko'rsatuvchi ko'zgudir. Faqatgina barqaror makroiqtisodiy muhit mavjud bo'lganda, mamlakatga xorijiy investitsiyalar kirib keladi va aholining hayot darajasi izchil

ravishda oshib boradi. Shuning uchun moliya siyosatining har bir qadami uzoq muddatli barqarorlikni saqlashga qaratilishi lozim.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar — bu davlat moliya tizimining mustaqil bo'g'ini bo'lib, ular muayyan maqsadli vazifalarni (ijtimoiy, investitsion, ekologik) moliyalashtirish uchun shakllantiriladi. Ularning asosiy xususiyati — bu mablag'larning davlat byudjeti tarkibiga kirmasligi va faqat o'z nizomida belgilangan yo'nalishlar bo'yicha sarflanishidir. Byudjetdan tashqari jamg'armalar davlatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi "xavfsizlik yostiqchasi"dir. Ularning samarali boshqarilishi makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga va aholining davlatga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING 2025-YIL 1-YARIM YILLIK IJROSI TO'G'RSIDA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIIYA
VAZIRLIGI

DAVLAT BUDJETI XARAJATLARI (TRLN SO'MDA)

2024 - YIL
1-YARIM YILLIK **149,8**

10,3% Yillik YalMga nisbatan

2025 - YIL
1-YARIM YILLIK **173,3**

10,1% Yillik YalMga nisbatan

■ 2024-YIL ■ 2025-YIL

DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING IQTISODIY TASNIF BO'YICHA IJROSI (TRLN SO'MDA)

Ish haqi	54,0	62,0	Ijtimoiy nafaqalar	11,6	11,4
Kapital qo'yilmalar	5,4	5,0	Ijtimoiy soliq	13,1	15,0
Tovar va xizmatlar	11,8	13,0	Foiz to'lovlari	7,0	8,6
Subsidiyalar	15,3	15,0	Boshqa xarajatlar	15,0	14,4
Asosiy vositalar bo'yicha xarajatlar	2,0	2,6			
Davlat maqsadli jamg'armalar	14,6	26,3			

IQTISODIYOTGA XARAJATLAR TARKIBI (MLRD SO'MDA)

21 560,5 **21 332,6**

Suv xo'jaligi xarajatlari	4 715,2	4 810,6
Aholi punktlarini obodonlashtirish	2 638,7	2 975,2
Geologiya qidiruv ishlari	392,4	363,5
Tabiatni muhofaza qilish	99,0	153,6
Uy-joy kommunal	1 622,9	1 611,1
Tabiiy gaz narxlaridagi tafovut uchun subsidiyalar	9 300	7 000,0
Umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarini saqlash va joriy ta'mirlash	797	1 713
Boshqa iqtisodiy xarajatlar	1 995,6	2 705,4

Davlat krediti — bu davlatning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qilish bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan yuzaga keladigan kredit munosabatlari majmuidir. Davlat krediti — bu rivojlanishning kuchli dastasidir. Biroq, undan olingan mablag'lar joriy iste'molga emas, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi va kelajakda daromad keltiruvchi investitsion loyihalarga yo'naltirilishi makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy shartidir.

ДАВЛАТ ҚАРЗИ ДИНАМИКАСИ (ЙИЛ ЯКУНИГА)



Bozor iqtisodiyoti — bu resurslarni taqsimlashda talab va taklif qonuniyatlariga tayanadigan tizimdir. Biroq, sof bozor mexanizmi hamma vaqt ham ideal ishlamaydi. Iqtisodiyotda "bozor muvaffaqiyatsizliklari" (market failures) deb ataluvchi holatlar (masalan, monopoliya, atrof-muhit ifloslanishi, ijtimoiy tengsizlik) yuzaga keladi. Aynan shu nuqtada davlat o'zining moliya tizimi orqali iqtisodiyotga aralashadi.

Xulosa:

Davlat krediti hisobidan jalb qilingan resurslarni joriy iste'molga emas, balki multiplikativ samara beruvchi innovatsion sohalarga yo'naltirish, bozor erkinligi va davlat nazorati o'rtasidagi "oltin o'rtaliq"ni saqlash mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy suvereniteti va aholi farovonligining poydevori bo'lib qoladi. Kelajakdagi islohotlar moliya tizimini yanada moslashuvchan (inklyuziv) qilishga va har qanday global iqtisodiy shoklarga qarshi "fiskal rezervlar"ni mustahkamlashga qaratilishi shart sharoitida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini harakatga keltiruvchi, tartibga soluvchi va barqarorlashtiruvchi eng asosiy mexanizm hisoblanadi. Pul mablag'lar o'zaro uzviy bog'liq bo'g'inlar orqali resurslarni qayta taqsimlovchi murakkab iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Bozor mexanizmlari hamma vaqt ham resurslarni adolatli taqsimlay olmasligi, ya'ni monopoliya, ijtimoiy tengsizlik va ekologik muammolar kabi "bozor nuqsonlari"ning mavjudligi davlatning moliya tizimi orqali iqtisodiyotga maqsadli va ilmiy asoslangan aralashuvini ob'ektiv zaruriyatga olib keladi. Makroiqtisodiy muvozanatni saqlashning eng samarali strategik vositasi bo'lib xizmat qiladi. To'g'ri shakllantirilgan fiskal mexanizmlar orqali davlat byudjeti umumdavlat ehtiyojlarini qoplasa, byudjetdan tashqari jamg'armalar aholining ijtimoiy himoyasini kafolatlaydi, davlat krediti esa vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni yirik investitsion loyihalarga safarbar etish imkonini beradi. Maqolaning eng muhim xulosasi shundan moliya tizimi samaradorligining bosh ko'rsatkichi bo'lib, bunga faqatgina qat'iy fiskal intizom, shaffoflik va moliya tizimini to'liq raqamli transformatsiya qilish orqali erishish mumkin.

Faydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. (O'zgartish va qo'shimchalar bilan 2024-yil holatiga). – Toshkent: Adolat, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasining ***2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida***gi Qonuni. – Toshkent, 2025.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni.
5. Vahobov A.V., Jo‘rayev A.S. Davlat byudjeti. Darslik. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021.
6. Toshmurodova B.E. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda moliya siyosatining o‘rni. Monografiya. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
7. G‘oyibnazarov Sh.G. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2023.
8. International Monetary Fund (IMF). World Economic Outlook: Structural Reforms and Macroeconomic Stability. – Washington DC, 2024.
9. World Bank. Public Finance Review: Enhancing Efficiency in Public Spending. – Washington DC, 2023.
10. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti – www.imv.uz (<https://www.imv.uz/>). (<https://www.imv.uz/>)